

UDK 664.53:631.527

**TOG‘LI VA TOG‘OLDI XUDUDLARIGA MOS NOAN’ANAVIY
XANTAL(GARCHITSA) EKin NAVLARINI TANLASH**

L.B.Mavlanov

Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti Baxmal ilmiy tajriba stansiyasi

Annotatsiya: Lalmikor moydonlarning tog‘li va tog‘oldi xududlariga mos noan‘anaviy xantal (gorchitsa) ekinining nav namunalarining qurg‘oqchilikka chidamli va serhosil navlarini tanlash va yangi nav yaratish bo‘ycha ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotlar natijasida noan‘anaviy xantal ekinining lalmikor moydonlarning tog‘li va tog‘oldi mintaqalariga mos, kelajakda maxalliy navlarni yaratish uchun boshlang‘ich manbalar bo‘luvchi nav namunalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: O‘simlik, bo‘yi, xantal, nav, gramm (g), don, 1000 dona don vazni, hosildorlik, sentner.

Аннотация: Приведены сведения по селекции нетрадиционных сортов горчицы (горчицы), пригодных для горных и предгорных районов засушливых земель, отбору засухоустойчивых и продуктивных сортов и созданию нового сорта.

В результате исследований были представлены образцы нетрадиционных посевов горчицы, пригодных для горных и предгорных районов засушливых районов, которые являются исходными источниками для создания местных сортов в будущем.

Abstract: Information on the selection of non-traditional mustard (mustard) cultivars suitable for mountainous and sub-mountainous areas of dry land, selection of drought-resistant and productive varieties and creation of a new variety is presented.

As a result of the researches, samples of non-traditional mustard crops suitable for mountainous and sub-mountainous regions of dry areas, which are the initial sources for the creation of local varieties in the future, were presented.

Xantal (gorchitsa) – karamdoshlar oilasining Sinapis va Brassica turkumiga mansub bir va ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar turkumi[1], moyli ekin. Vatani– O‘rta Yer dengizi bo‘ylari. Yevropa, Shimoliy Afrika va Osiyoda tarqalgan. Sinapis turkumi 7-10 turni o‘z ichiga oladi. Oq xantal turi (S.alba) O‘rta Yer dengizi mamlakatlarida o‘stiriladi, asosan, G‘arbiy Yevropada ekiladi. Bo‘yi 25-100 sm, poyasi tik o‘sadi. To‘pguli ko‘p gulli, ikki jinsli, o‘zidan hamda chetdan changlanadi. Mevasi qo‘zoqcha. Urug‘i och sariq yoki och jigarrang, ta‘mi achchiq, efir hidi keladi. Yovvoyi xantal yoki dala xantali (S.arvensis) bir yillik (bahorgi ekinlar dalalarida o‘sadigan) begona o‘t. Yevropa, Shimoliy Afrika va Osiyoda tarqalgan. Qora xantal (S.nigra) qo‘zoqlari poyaga yopishgan. Kichik Osiyo, Yevropa va Amerikada ekiladi. Habashiston xantali (B.carinata) Efiopiyada ekiladi. Xantal namsevar, sovuqqa chidamli, uzun kun o‘simligi. O‘suv davri 95-120 kun. Xantal urug‘idan non, qandolatchilik, konserva, parfyumeriya sanoatida ishlatiladigan sifatli moy olinadi (35-40%). Xantal kunjarasidan olinadigan kukundan tibbiyotda ishlatiladigan xantalli qog‘oz va iste‘mol qilinadigan ziravor bo‘tqa tayyorlanadi. Xantalning ildizmevali va bargli navlari sabzavot o‘simligi hisoblanadi. Hamma xantallar asal beruvchi ekin.[2]

Dunyoda xantal moyli o‘simlik sifatida eng ko‘p ishlatiladigan o‘simliklardan biridir. Hozirgi vaqtda xantal dunyoda ko‘p tarqalgan moyli ekin bo‘lib, kungaboqar, soya va moyli zig‘irdan keyin to‘rtinchi o‘rinda turadi.

Xantal o‘simligi oziq-ovqat sanoatida, konserva va qandolat mahsulotlari olishda, to‘qimachilik va dori-darmon ishlab chiqarishda foydalaniladi[3].

Jahonda 2006-2020 yillarda BMTning ma‘lumotiga ko‘ra xantal o‘simligidan o‘rtacha 540,45 ming tonna don yetishtirilgan bo‘lib, 2020 yilda Nepal (209,7 ming tonna), Rossiya (164,9 ming tonna), Kanada (134,7 ming tonna), Myanmar (Burma) (39,64 ming tonna), Ukraina (39,53 ming tonna), AQSH (28,84 ming tonna), Xitoy (18,34 ming tonna), Qozog‘iston (12,83 ming tonna) va Misr (2,65 ming tonna) eng ko‘p yetishtiradigan mamlakatlar hisoblanadi [4].

Hozirgi kunda O‘zbekiston aholisining o‘simlik moyiga bo‘lgan yillik ehtiyoji 483 ming tonnani tashkil etadi. Mazkur miqdorning 251 ming tonnasi mahalliy xom

ashyo, 45 ming tonnasini import xom ashyosi hisobiga ishlab chiqarilgan o'simlik moyi hisobiga qoplanadi, shuningdek yiliga o'rtacha 187 ming tonna import qilingan tayyor o'simlik moyi aholi istemoli uchun yo'naltiriladi.

Respublikamizda iste'mol qilinayotgan o'simlik moyining 230 ming tonnasini kungaboqar moyi, 203 ming tonnasini paxta moyi, 48 ming tonnasini zig'ir, palma, maxsar, zaytun va boshqa moylar tashkil etadi, shundan O'zbekistonda kishi boshiga yiliga 12,4 kg o'simlik yog'i to'g'ri keladi.

Bugungi kunda aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishda oziq-ovqat sanoati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mahalliy oziq-ovqat va xomashyo ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, bozorga xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol me'yorlarida belgilangan assortimentda yetkazish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Shuning uchun qishloq xo'jaligida no'anaviy moyli ekinlarning yangi turlarini intrduksiya qilish, ular asosida yangi navlarini tanlash va yaratish orqali mahalliy oziq-ovqat hamda xomashyo ishlab chiqarishni barqarorligini ta'minlashda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, O'zbekistonda noan'aviy ekin xantal o'simligining tog'li va tog'oldi mintaqalarga mos, qurg'oqchilikka chidamli, hosildor navlarini tanlash, o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqot uslublari. Tajribalarini joylashtirish Qishloq ho'jalik ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasi (1989) uslubiy qo'llanmasi va fenologik kuzatuvlar, biometrik o'lchash o'simlik bo'yi, tup soni, 1000 ta don vazni V.M.Lukomes (2010) tomonidan ishlab chiqilgan uslublar asosida olib borildi[5].

Tajriba natijalarini matematik tahlil Dospexov B.A. (1985) ishlab chiqqan usul bo'yicha tahlil qilindi [4].

Natija va tahlillar: Tajribalar davomida Rossiya Federatsiyasidan keltirilgan 5 ta nav namunasi Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti Baxmal ilmiy-tajriba stansiyasining seleksiyasi va urug'chiligi laboratoriyasida 2019-2024 yillarda

qurg'oqchilikka chidamli va serhosil navlar tanlash va yaratish maqsadida ekib o'rganildi.

Xantal o'simligining fenologik kuzatishlar natijasida o'simlik bo'yi 115,1 smdan 128,4 smni, o'rtacha 123,9 smni tashkil etdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra Kristil va Arleta navlarining bo'yi jihatidan tog'li va tog'oldi mintaqalarda o'rtachaga nisbatan 2,7-7,1 sm baland bo'lganligi aniqlandi.

Tadqiqot tahlillariga ko'ra tog'li va tog'oldi mintaqalarda o'rtacha o'simlik 1000 dona don vazni 2,73 gni tashkil qildi. O'rtachaga nisbatan Kristal (2,9 g) va Nika (3,1 g) navlarida 0,17-0,37 g yuqori ekanligi kuzatildi (jadval-1).

1-jadval

Noan'anaviy ekin xantal navlarining qimmatli xo'jalik belgilari

№	Navlar nomi	O'simlik bo'yi, sm	1000 dona don vazni, (g)			Hosildorlik (s/ga)		
			I	II	O'rtacha	I	II	O'rtacha
1.	Nika	118,3	2,9	3,2	3,1	10,3	9,9	10,1
2.	Bravo	115,1	2,7	2,4	2,6	9,3	8,5	8,9
3.	Belliya	120,6	2,6	2,4	2,5	14,2	14,9	14,55
4.	Arletta	128,4	2,6	2,8	2,7	11,4	13,2	12,3
5.	Kristal	124,2	2,7	3,0	2,9	10,5	11,4	10,95
	O'rtacha	121,3	2,70	2,76	2,73	11,14	11,58	11,36

Tadqiqot yilida nav namunalar hosildorligi 8,9 dan 14,55 s/ga gacha, o'rtacha hosildorlik 11,36 s/ga bo'lib, o'rtachaga nisbatan Arletta (12,3 s/ga), Beliya (14,55 s/ga) navlarinnig hosildorligi 0,94- 3,19 s/ga yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Tadqiqotlar natijasida Kristal (2,9 g) va Nika (3,1 g) navlari o'rtacha o'simlik 1000 dona don vazni xamda Arletta (12,3 s/ga), Beliya (14,55 s/ga) navlari hosildorligi

yuqoriligi jihatidan tog‘li va tog‘oldi mintaqalarga boshlang‘ich manbalar sifatida seleksiya jarayonida qo‘llash uchun tanlab olindi.

Xulosa

Xulosa qilinadigan bo‘lsa lalmikor maydonning tog‘li va tog‘oldi mintaqalarga noan’anaviy ekin xantalning Arletta (12,3 s/ga), Beliya (14,55 s/ga) navlarini ekish uchun tanlab olindi. Kelgusida ushbu ekinning yangi nav namunalarini kengaytirishga va ular asosida mahalliy navlar yaratishga imkon yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mabberley.D.J. Mabberley's Plant-book: a Portable Dictionary of Plants, their Classifications, and Uses. Cambridge University Press, 2008 — 798-bet. ISBN 9780521820714.
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Bobomirzayev P.X, Mavlanov L, Ochilov Z, Xudoynazarov J. “Lalmikorlikning tog‘ oldi mintaqasi sharoitida xantalning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’siri” Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181 3523 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 202 571-575.
4. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта – М.: Агропромиздат, 1985.- С. 352.
5. Лукомец В.М., Тишков Н.М., Баранов В.Ф., Пивень В.Т., Уго Торо Корреа., Шуляк И.И. Методика проведения полевых агротехнических опытов с масличными культурами // второе издание. – Краснодар.-2010. -179-255-259с.
6. Мавланов Л. Б., Аманов Ф. Б. СЕЛЕКЦИЯ ЛЬНА МАСЛИЧНОГО В БОГАРНЫХ УСЛОВИЯХ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 153-156.

<https://www.tridge.com/intelligences/mustard-seed/production>

<https://www.zarnews.uz/post/ozbekistonda-kishi-boshiga-yiliga-124-kilogramm-osimlik-yogi-togri-keladi>

https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official